OGAHIY TARIXIY ASARLARINING YANGI NASHRI XUSUSIDA

Rajabboyeva Niyozjon Baxodir qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
rajabboyevaniyozjon@gmail.com

Qabul qilindi: 01.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 02.11.2025
Tasdiqlandi: 03.11.2025

Kalit so‘zlar:
Ogahiy, Xiva xonligi, tarixiy manba, qo‘lyozma, tanqidiy nashr, matnshunoslik, manbashunoslik, tarixshunoslik, “Riyoz ud-davla”, “Shahidi iqbol”.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning mashhur tarixchisi, shoiri va tarjimoni Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning tarixiy asarlari hamda ularning yangi ilmiy-tanqidiy nashrlarini tayyorlash jarayoni tahlil etiladi. Ogahiy tomonidan yaratilgan “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome‘ ul-voqeoti sultoni”, “Gulshani davlat” va “Shahidi iqbol” asarlarining mazmuni, tarixshunoslikdagi o‘rni hamda ularni ilmiy asosda nashrga tayyorlash metodikasi haqida fikr yuritilgan. Yangi nashrlarning o‘zbek tarixshunosligi, matnshunosligi va madaniyatshunoslik sohalariga qo‘shgan hissasi asoslab beriladi.

Kirish. Ogahiy fasohatli shoir, mohir tarjimon, davlat arbobi va zukko tarixchi olim edi. Ogahiy o‘z amakisi va ustozi Shermuhammad Munisning Xorazm tarixiga oid “Firdavs ul-iqbol” asarini davom ettirib, mukammal tarixiy asar sifatida yakunlagan. Bundan tashqari, o‘zi beshta mustaqil tarixiy asar yozgan. Bular – Olloqulixon hukmronlik qilgan davr (1825-1843) to‘g‘risidagi “Riyoz ud-davla”, Rahimqulixon saltanati davri (1843-1846)ga bag‘ishlangan “Zubdat ut-tavorix”, Muhammad Aminxon hukmfarmoligi (1846-1855) voqealari haqida bahs yurituvchi “Jome’ ul voqeoti sultoniy”, Sayyid Muhammadxon hukmronligi davri (1856-1865) to‘g‘risidagi “Gulshani davlat”, Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz saltanati voqealari xususida ma’lumot beruvchi “Iqboli Feruziy” yoki “Shohid ul-iqbol” asarlaridir.

Ogahiyning tarixiy asarlarini ôrganish va ommalashtirish borasida shu vaqtgacha bir qancha ishlar qilingan. Y. G'ulomov, V. Abdullayev, S. Dolimov, G'. Karimov, Q. Munirov, N. Komilov, F. G'anixôjayev ksbi ôzbek, V. V. Bartold, P. P. Ivanov, A. Y. Yakubovskiy kabi rus olimlarining tadqiqotlari shular jumlasidandir.. Haqiqatni ochiq aytish imkoniyati tug'ilgan bugungi davrda ulardan ba'zilariga munosabat bildirib ôtish zarur deb hisoblaymiz. Jumladan, V. V. Bartold Munis va Ogahiyning tarixiy asarlariga bunday baho beradi:"Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar qanchalik kamchilikka ega bôlmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik

materiallarning kôpligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qôqon va Buxoro xonliklari tarixi bôyicha yozilgan hamma asarlarni ôzidan ancha orqada qoldiradi".

Bartold va boshqa rus olimlarining Turkiston tarixini, shu jumladan, Munis va Ogahiyning tarixiy asarlarini qanday maqsadlarda ôrganganlari bugun kôpchilikka sir emas. Shu bois bir qarashda Ogahiy va Munisning tarixnavislik faoliyati maqtalganga ôxshab tuyilgan yuqoridagi iqtibosda ularning kamchilikka ega ekanligiga alohida urg'u beriladi. Umuman, millatni itoatda saqlashning muhim quroli -uning qalbida ôz tarixiga mensimasdan qarash tuyg'usini shakllantirish edi. Bunga ma'lum ma'noda erishildi ham.

Adabiyotlar tahlili. Bugun esa yangi davrga qadam qôydik. Bu davr barcha ulug' ajdodlarimiz merosi, shu jumladan, Ogahiy tarixiy asarlarining asl mohiyati haqida ilmiy fikr yuritish imkoniyati tug'ilganligi bilan qadrlidir. Shu nuqtayi nazardan, Ogahiyning tarixiy asarlari ulkan ilmiy-amaliy va ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

"Firdavs ul-Iqbol"

Asarning oltita qôlyozma nusxasi mavjud bôlib2, ulardan ikkitasi Sankt-Peterburgda, tôrttasi esa Ôzbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda.Ma'lumki, Xorazmda qông'irotlar sulolasining hukmronligi Eltuzarxondan boshlangan. Xorazm tarixnavisligining boshlanishi ham aynan mana shu xon nomi nilan bog'liq. U Shermuhammad Munisni ôz huzuriga chorlab, Xorazm xonlari tarixini yozish vazifasini yuklaydi. "Firdavs ul-iqbol" asarining yozilishi mana shu tariqa boshlangan. Eltuzarxondan keyin davlat tepasiga kelgan Muhammad Rahim I ham Munisga asarni davom ettirishni buyuradi. Tarixchi olim Munirovning ta'kidlashicha, "Munis Muhammad Rahim I hukmronligining yettinchi yili voqealariga kelganda, xon unga Mirxondning "Ravzat us-safo" nomli tarixiy asarini ôzbek tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis bu asarning birinchi jildini ôzbek tiliga tarjima qilib, ikkinchi jildiga ôtganda Muhammad Rahim I vafot etadi. Muhammad Rahimning ôrniga uning ôg'li Olloquli ôtiradi. U ham Munisga tarjimani davom ettirishni buyuradi. Buroq Munis ikkinchi kitobni oxiriga yetkazolmay, 1244-xijriy (milodiy 1829) yili vafot etadi. Olloqulixon hijriy 1255 (1839-1840) yili Munisning shogirdi va uning tarbiyasini olgan Muhammad Rizo Ogahiyni chaqirib, 1813-yil voqealarini bayon etish bilan uzikib qolgan "Firdavs ul-iqbol" ni davom ettirishni buyuradi"

Ogahiy "Firdavs ul-iqbol"dagi 1813-yildan 1825-yilgacha bôlgan voqealar qismini yozadi va shu tariqa mazkur tarixiy asar avlodlar mulkiga aylanadi. "Firdavs ul-iqbol" muqaddima, besh asosiy bob va xotimadan tashkil topgan.

I bob. Odam safiyullohdan Nuh alayhissalom avlodlarigacha bôlgan hodisalar bayoni.

II bob. Yofasdan qông'irot shôbasigacha bôlgan môg'ul hukmdorlari haqida.

III bob. Eltuzarxonning ota-onalari haqida.

IV bob. Eltuzarxonning tug'ilishidan boshlab, bu asarning yozilib yakunlanishiga qadar sodir bôlgan voqealar bayoni.

Asar boblarining nomlanishiyoq unda turkiy xalqlar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjudligini kôrsatadi.

"Riyoz ud-davla"

Ilm ahliga asarning yettita qôlyozma nusxasi ma'lum bôlib, ulardan tòrttasi Sankt-Peterburg Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bulardan avvalgi ikkitasi mukammal nusxalar bôlib, keyingi ikkitasi tôliq emas. "Riyoz ud-davla"ning uchta qôlyozmasi Ôzbekiston FA Sharqshunoslik instituti qôlyozma asarlar xazinasida saqlanmoqda.

"Riyoz ud-davla"da Olloqulixon saltanati davri (1825-1843) voqealari bayon qilinadi. Asar (Ogahiyning deyarli barcha tarixiy asarlari) nasri musajja (ichki qofiyali nasr)da yozilgan.Ba'zi muhim fikrlar esa she'riy yôl bilan ham berib borilgan. Muarrix asarning muqaddimasida ôzi haqida quyidagicha yozgan edi:"Erniyozbek ôg'li Muhammad Rizo Mirob, laqabim Ogahiy, ôz ahvolimni quyidagicha bayon etaman. Yoshlik chog'larimda boshimga turli-tuman tashvishlar tushdi. Har tarafdan boshimga balo toshlari yog'ildi. Hamisha kônglimda notinchlik va ta'bimda xavf hukm surar edi.

Nazm:

Gohi yuz qôyub boshimg'a qayg'u,
Kôrunub kôzuma olam qorong'u.
Bôlub g'am xayli gohi qosidi jon,
Yiqilib boshima garduni gardon.
Ochib gohi havodis ilki panja,
Qilib kônglumni a'zosini ranja.
Bôlub dilxasta-yu ta'bim parishon,
Fig'onlar aylar erdim, lek pinhon.

Lekin jahondin yetgan har xil alamlarni olimlarning va shoirlarning suhbatida bôlish bilan bir oz tarqatar edim".1 Bu iqtibosdan chiqadigan xulosa shundan iboratki, birinchidan, boshqa barcha asarlari kabi "Riyoz ud-davla" ham Ogahiyning hayot yôli va ijodiy faoliyatini ôrganishda môtabar manbalardan hisoblanadi. Ikkinchidan, ma'lum bôladiki, shoir yoshlik chog'laridanoq ilm-ma'rifatga intilgan, "jahondin yetgan alamlarni olimlar va shoirlarning suhbatida bôlish bilan tarqatgan". Bu esa uning kasbi kamolotida muhim ôrin tutgan.

Materiallar va usullar. “Riyoz ud-davla”da Olloqulixonning tavallud sanasidan to vafotiga qadar bo‘lgan voqealar bayon qilingan. Jumladan, Olloqulixonning taxtga kelishi bilan bog‘liq voqealar, Xiva xonligining Eron, Afg‘oniston, Rossiya, Angliya kabi mamlakatlar bilan olib brogan diplomatik munosabatlari, xorazmshohlarning Eronga qilgan yurishlari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Olloqulixonning bunyodkorlik faoliyati, xususan, kanallar qazilishi, masjid-madrasalar qurilishi, sug‘orish inshootlari yuzaga kelishida xonning olib borgan siyosati to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Asarning beshta qo‘iyozma nusxasi ma’lum. Ulardan ikkitasi Sankt-Peterburgda, uchtasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institute fondida saqlanadi.

“Zubdat ut-tavorix” hijriy 1262, milodiy 1864-yilda yozilgan. Asarda 1843-yildan 1846-yilgacha Xorazmda Rahimqulixon saltanati davrida bo‘lgan voqealar xronlogik tarzda bayon etilgan.

Bu asar haqida Munirovning tadqiqotlarida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan. Ogahiy asarlarining olti jildligida “Zubdat ut-tavorix”dan sarlavhasi bilan kichik bir parchagina e’lon qilingan.

Asarning o‘rganilish tarixidan. Ma’lumki, Ogahiy badiiy- tarixiy asarlari haqida amerikalik olim E. Ollvorsning "Uzbek adabiy siyosati" kitobida tahliliy fikrlar uchraydi. E. Ollvors tadqiqotidan keyin oradan ko‘p yillar o‘tib, yana bir amerikalik olim Yuriy Bregel mumtoz shoir va muarrix Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub "Firdavsu-l-iqbol"ning dastlab ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi", keyin esa asarni ingliz tiliga tarjima qilib, ikki jild holida nashr ettirdi. Bundan tashqari, Ogahiy badiiy-tarixiy nasri yuzasidan rossiyalik mutaxassislar, shuningdek, o‘zbek olimlarining tadqiqotlari e’lon qilingan. Shu jumladan, 1997-2002 yillar davomida ushbu satrlar muallifining asar haqidagi kuzatishlari maqolalar tarzida chop etilgan. Biroq asar yuzasidan maxsus ilmiy tadqiqotlar yaratilgan emas.

Tadqiqot muhokamasi. Ma’lumki, o‘tgan asrning 70-yillari oxirida ustoz olimlar G‘ulom Karimov va Subutoy Dolimov sa’y-harakatlari bilan Ogahiy asarlarining olti jildligi nashr etildi. Badiiy-tarixiy asarlari jamlangan beshinchi jildda "Zubdatu-t-tavorix" dan" sarlavhasi ostida asardan kichik bir parcha e’lon qilindi. Biroq Abulg‘ozi Rahimquli Muhammad Bahodirxon saltanati davriga bag‘ishlangan bu memuar-qissaning ilmiy izohlar bilan ta’minlangan to‘liq matnini chop etish imkoni bo‘lgan emas. O‘sha kezlari asarning mukammal nashrini amalga oshirish to‘g‘ri sida orzu ham qilib bo‘lmagani, chunki, badiiy-tarixiy nasrning bu yuksak namunasi mohiyatan o‘sha davrdagi hukmron mafkura siyosatiga, uning tutumiga tamomila zid ekanini yuqorida ham aytib o‘tgan edik. Unda tarixiy voelik betakror badiiyat bilan tasvirlangan, hukmdor ajdodlarimizning johilligi emas, fazilatlari xususida bahs yuritilgan edi.

“Ta’kidlash joizki, uzoq muddat davomid "Zubdatu-t-tavorix" tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib keldi. O‘tmish adabiy-tarixy merosini o'rganishga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan ham kuchaygan bugungi kunda zamondoshlarimizni, ayniqsa, yosh avlodni ushbu asarning asl mohiyatidan xabardor qilish, buning uchun esa asarning ilmy izohlar bilan ta’minlangan mukammal nashrini amalga oshirish hayotiy zaruratdir. Binobarin, asardan elon qilingan parcha, ta’kilanganidek, o‘quvchiga uning mazmun-mohiyati haqida to‘laqonli tasavvur bera olmaydi. "Zubdatu-t-tavorix" ning ilmiy izohlar, lugat va ko‘rsatkichlar bilan ta’minlangan asl qo‘lyozma manba asosidagi to‘liq tabdili

ehtiyoj samarasi ekanini ta'kidlash kerak"[1],-deb yozadi Ushbu asarning to'liq matnini nashrga tayyorlagan filologiya fanlari doktori, prof. Nurboy Jabborov. Nihoyat, 2009-yilda "Zubdatu-t-tavorix" asarining to'liq matni nashr etildi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilmiy nashr talabiga ko'ra, asar uchun geografik nomlar, shaxs ismlari va etnik atamalar ko'rsatkichlari tuzilganligi, geografik nomlar ko'rsatkichi izohlar bilan ta'minlangani, barcha ko'rsatkichlarda ushbu matn uchun asos qilib olingan 821-raqamli qo'lyozma varaqlari raqami e'tiborga olinganligi muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi esa, bu mo'tabar manbaning ilmiy istifodaga olib kirilishi, turli fanlar kesimida tadqiq qilinishi ogahiyshunoslik yutug'ini ta'minlashga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мунировв Қ. Хоразмда тарихнавислик:: (XVI–XIX ва XX аср бошлари). – Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
2. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. -Т., 2010. 467-б.
3. Мунировв Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. – Т.: Фан, 1960.

[1] 1."Zubdatu –t-tavorix".Nashrga tayyorlovchi N.Jabborov.Toshkent."O'zbekiston"